ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Резюме. В статье проводится сопоставительный анализ узбекских единиц olqish, duo и tilak и их английских соответствий. Эти три единицы рассматриваются как компоненты единой системы благопожелания (alqov): определяются их различия, ситуации употребления и прагматические особенности. Анализируются культурные понятия, лежащие в основе узбекских благопожеланий, (baraka, rizq, qut, umr, oq) и показано, что часть из них принадлежит всему исламскому культурному пространству. Установлены три степени эквивалентности, выявлены лакуны с обеих сторон и предложены способы передачи таких единиц при переводе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL TIZIMINI MAYDONLAR ORQALI TUSHUNISH G'OYASINING VUJUDGA KELISHI

Karimov Abdulatif Abdug'aforovich,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan va shartlangan elementlar tizimi deb tushunish ustuvor ahamiyat kasb etadi[1]. Til qurilishi o'ta murakkab va serqirra voqelik bo'lib, u o'z uzvlarining oddiy arifmetik yig'indisidan ko'ra kengroq va chuqurroq mohiyatga ega[2]. Til tizimini maydonlar orqali tushunish va tadqiq etish g'oyasi tilshunoslikning tavsifiy (descriptive) bosqichdan tizimli-struktural (system-structural) bosqichga o'tishida hal qiluvchi rol o'ynadi[3].

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashishi natijasida yuzaga kelgan «maydon» (field) tushunchasi o'tgan asrning 20-30-yillarida G'arb tilshunosligida shakllana boshladi[4]. Ushbu g'oyaning nazariy ildizlari Vilgelm fon Gumboldtning «tilning ichki shakli» haqidagi ta'limoti hamda Ferdinand de Sossyurning tilni belgi va ishoralar tizimi sifatidagi qarashlariga borib taqaladi[5]. Xususan, Sossyur til elementlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgandagina ahamiyat kasb etuvchi yopiq tizim ekanligini isbotlab, lisoniy birliklarning bo'linish qonuniyatlarini asoslab berdi[6].

Maydon nazariyasining uzil-kesil shakllanishida nemis tilshunoslari Gunter Ipsen va Yohan Trirning xizmatlari beqiyosdir. G. Ipsen 1924-yilda «mazmuniy maydon» (Bedeutungsfeld) terminini birinchi bo'lib fanga olib kirdi, Y. Trir esa har bir lisoniy birlik o'z ma'nosini faqat yaxlit bir butunlik (maydon) tarkibida oladi, degan g'oyani ilgari surdi[7]. Keyinchalik bu yo'nalish V. Porzig, L. Vaysgerber, A.Yolles kabi olimlar tomonidan rivojlantirilib, tilning leksik-semantik sathini guruhlar asosida o'rganishning metodologik

[1] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 4.

[2] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 12.

[3] Исломов И. Х. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б 12.

[4] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 30.

[5] Кўрсатилган манба – Б 31.

[6] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 10.

[7] Шокиров Ш. И. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 23.

asosi yaratildi[1].

O‘zbek tilshunosligida leksikani maydon asosida tadqiq etish o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab jadallashdi. Bu borada I. Qo‘chqortoyev, A. Nurmonov, H.Ne’matov, R. Rasulov, Sh. Iskandarova va A. Sobirov kabi olimlarning ishlari til birliklariga tizimli yondashuvning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi[2]. Ayniqsa, Sh. Iskandarova tomonidan «shaxs» mikromaydoni misolida o‘zbek tili leksikasining maydon tabiati batafsil ochib berildi[3].

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida til korpuslarini yaratish, mashina tarjimasi va sun’iy intellekt tizimlarini takomillashtirish bevosita til tizimini maydonlar orqali modellashtirishni taqozo etadi[4]. Biroq, ushbu g‘oyaning lisoniy taraqqiyotdagi o‘rni va uning rivojlanish bosqichlarini qiyosiy-nazariy jihatdan umumlashtirishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining lisoniy va falsafiy asoslarini tahlil qilish hamda uning o‘zbek tilshunosligidagi tatbiqiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Quyida maydon nazariyasining asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari aks ettirilgan jadvalni keltiramiz:

1-jadval.

Maydon nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Bosqichlar	Davr	Asosiy namoyandalar	G‘oyaning mazmuni
Nazariy-falsafiy poydevor	XIX asr oxiri – XX asr boshi	V. Gumboldt, F. de Sossyur	Tilning «ichki shakli» va tizimli (sign) tabiati
Klassik maydon nazariyasi	1920-1930-yillar	G. Ipsen, Y. Trir, V. Porzig	Mazmuniy maydon (mosaic model) va sintagmatik maydon g‘oyasi
Struktur-semantik bosqich	XX asr 50-70-yillari	E. Kosheriu, V. Gak, A. Bondarko	Funksional-semantik va struktur tahlilning chuqurlashuvi
Zamonaviy (o‘zbek) bosqichi	XX asr oxiri – XXI asr	A. Nurmonov, Sh. Iskandarova	Onomasiologik yondashuv va lingvistik modellashtirish

2-jadval.

O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasi bo‘yicha olib borilgan asosiy tadqiqot yo‘nalishlari

Tadqiqotchi	Tadqiqot obyekti (Maydon turi)	Lisoniy qiymati
Sh. Iskandarova	«Shaxs» mikromaydoni	Olamning lisoniy manzarasini tizimli aks ettirish
H. Hojiyeva	«Hurmat» maydoni	Ijtimoiy-pragmatik munosabatlarning ifodalanishi
F. Safarov	«Son-miqdor» mikromaydoni	Leksik birliklarning miqdoriy darajalanishi (graduonimiya)
A. Sobirov	Leksik sathning tizimlar tizimi	Tilni makrosistema sifatida tushunish

Maydon nazariyasi tilni tartibsiz elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki qat’iy qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi, o‘zaro dialektik bog‘langan yaxlit organizm sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Til tizimini maydonlar orqali tadqiq etish g‘oyasi uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning nazariy asoslari tilshunoslikning eng muhim burilish nuqtalariga tayanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu nazariya dastlab G‘arbiy Yevropada shakllanib, keyinchalik rus va o‘zbek tilshunosligida o‘zining tizimli maktablariga ega bo‘ldi.

Maydon g‘oyasining nazariy poydevori Vilgelm

[1] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – Б 33.

[2] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. – Б 27.

[3] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 13

[4] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. –Б 32.

fon Gumboldtning tilni «haqiqiy olamni idrok etish quroli» va «ichki shakl» (innere Sprachform) ekanligi haqidagi qarashlari bilan qo'yilgan[1]. Ferdinand de Sossyur esa tilni elementlari o'zaro bog'liq bo'lgan yopiq tizim ekanligini asosladi. Uning «assotsiativ munosabatlar» (keyinchalik paradigmatik munosabatlar) haqidagi konsepsiyasi maydon nazariyasining metodologik tayanchi bo'lib xizmat qildi[2].

Tilshunoslikda «maydon» terminini birinchi bo'lib Gunter Ipsen 1924-yilda fanga olib kirdi va uni ma'no jihatdan birlashgan so'zlar majmuasi deb ta'rifladi[3] . Biroq, ushbu nazariyaning mukammal ko'rinishi Yohan Trir nomi bilan bog'liq. Trirning «mozaika modeli»ga ko'ra, tilning leksik tarkibi tushunchalar maydonini hech qanday bo'shliqlarsiz qoplaydi va bir so'zning ma'nosi qo'shni so'zlarning ma'no chegaralari bilan belgilanadi[4]. Trirning paradigmatik yondashuviga zid o'laroq, Valter Porzig 1934-yilda «sintagmatik maydon» (Wortkomplex) g'oyasini ilgari surib, so'zlarning birikuvchanlik imkoniyatlariga (masalan, «tish» va «tishlamoq» orasidagi bog'liqlik) e'tibor qaratdi[5].

XX asrning ikkinchi yarmida Jon Layonz maydon nazariyasini semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya, giponimiya) asosida yanada tizimlashtirdi[6]. Adrienne Lehrer esa kontekstning maydon birliklariga ta'sirini o'rganib, leksik tarmoqlar nazariyasini rivojlantirdi[7]. Rossiya tilshunosligida A.Bondarko tomonidan ishlab chiqilgan «funksional-semantik maydon» nazariyasi tilning turli sathlaridagi (leksik, grammatik, so'z yasalish) birliklarni umumiy ma'no atrofida birlashtirish imkonini berdi[8].

O'zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida o'rganish I.Qo'chqortoyevning so'z valentligi haqidagi ishlari bilan boshlangan[9]. Sh.Iskandarova o'zining fundamental tadqiqotlarida «shaxs» mikromaydoni misolida maydon birliklarining iyerarxik tuzilishi, yadro va periferiya munosabatlarini batafsil ochib berdi[10]. A.Sobirov o'zbek tili leksikasini «sistemalar sistemasi» sifatida talqin qilib, maydonlararo graduonimik, partonimik va giponimik munosabatlarni tasnifladi[11]. Keyingi davrda A.Eshmuminov tomonidan maydon nazariyasi til korpuslarini yaratishda taksonomik va meronimik modellash asosi sifatida qo'llanildi[12].

Quyida adabiyotlar tahlili asosida shakllantirilgan tizimli ma'lumotlarni keltiramiz:

3-jadval.

Maydon nazariyasining klassik va zamonaviy yondashuvlari qiyosiy tahlili

Yondashuv	Namoyandalar	Asosiy prinsipi	Tadqiqot usuli
Paradigmatik (Mozaika)	Y.Trir, L.Vaysgerber	So'zlar tushunchalar maydonini zich qoplaydi	Ma'no chegaralarini zidlash
Sintagmatik (Valentlik)	V.Porzig, I.Qo'chqortoyev	So'zlar o'zaro birikuvchanlik orqali maydon hosil qiladi	Sintaktik aloqadorlik tahlili

[1] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 30.

[2] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 10

[3] Шокиров Ш. И. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 19.

[4] Петренко А. Е. Семантические поля в романах Кретьена де Труа как репрезентация фрагментов языковой картины мира средневекового человека. Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: 2016. – Б 14

[5] Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля "правосудие" в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2011. – Б 26.

[6] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2023. – 52 Б 21.

[7] Lehrer A. Semantic Fields and Lexical Structure. – North-Holland Publishing Company, 1974. – P 198.

[8] Бондарко А. В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – 2-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 208 с

[9] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 16.

[10] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 13

[11] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 93.

[12] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз, 2022. – 267 б

Funksional-semantik	A.Bondarko, Sh.Iskandarova	Turli sath birliklari bitta semantik dominantga xizmat qiladi	Iyerarxik struktur tahlil
Kognitiv-modellashtirish	J.Layonz, A.Eshmuminov	Maydon - inson xotirasi va raqamli tizimlardagi bilimlar tarmog'idir	Tezaurus va korpus razmetkasi

4-jadval.

O'zbek tilshunosligida lisoniy birliklarni maydon sifatida tadqiq etishning ustuvor yo'nalishlari

Tadqiqotchi	Nazariy yo'nalishi	Maydonni tashkil etuvchi asosiy munosabatlar
A. Nurmonov	Struktur tilshunoslik	Tilning sistem-struktur tabiati va uning falsafiy asosi
Sh. Iskandarova	Onomasiologik yondashuv	Markaz-qurshov, yadro va periferiya munosabatlari
A. Sobirov	Sistem leksikologiya	Giponimiya, partonimiya, graduonimiya, zidlik
B. Mengliyev	Subistansial tilshunoslik	Lisoniy sistemaning yaxlitligi va sathlararo aloqadorlik

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili maydon nazariyasining "ichki shakl" haqidagi mavhum falsafiy g'oyadan aniq matematik va lingvistik modellashtirish bosqichiga o'tganligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda til tizimini maydonlar orqali o'rganishning nazariy-evolyusion jihatlarini tahlil qilish uchun sistem-struktur tilshunoslik tamoyillariga asoslanildi[1]. Til birliklarini mazmuniy maydon sifatida tasniflashda «mazmundan shaklga» yo'nalishidagi onomasiologik yondashuv yetakchi metodologiya sifatida tanlab olindi[2].

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar majmuidan foydalanildi:

Leksemalar ma'nosini eng kichik mazmuniy bo'laklar semalarga ajratish orqali ularning maydon ichidagi o'rni aniqlandi[3]. Bunda arxisema (umumlashtiruvchi belgi) va differensial semalar (farqlovchi belgilar) o'rtasidagi ierarxik munosabatlar belgilandi[4].

Lisoniy birliklarni yadro (nucleus), markaz va periferiya (qurshov) qismlariga ajratib modellashtirish amalga oshirildi[5]. Ushbu metod maydonning ichki strukturasini ierarxik tashkil etishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi[6]. Turli tizimdagi (ingliz va o'zbek) til materiallarini chog'ishtirish orqali maydon nazariyasining universal va milliy-xos xususiyatlari ochib berildi[7]. Til tizimining kognitiv-struktur tasvirini yaratish uchun freymlar va grafik modellardan foydalanildi[8]. Tadqiqot bazasini shakllantirishda «O'zbek tilining izohli lug'ati» (1981, 2006, 2020 yil nashrlari) va sohaviy terminologik lug'atlardan olingan 1000 dan ortiq leksemalar tanlab olindi. Shuningdek, til birliklarining nutqiy voqelanishini tekshirish uchun o'zbek tili milliy korpusi materiallari tahlilga tortildi[9].

Quyida tadqiqotda qo'llangan metodlar va ularning vazifalari aks etgan jadvalni keltiramiz:

[1] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 24.

[2] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 41.

[3] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 21.

[4] Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля "правосудие" в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2011. – С 136.

[5] Забродкина Е. А. Семантическое поле "дом" в русских народных говорах. Дисс. ... канд. филол. наук. – 2010 – С 57.

6 Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля "правосудие" в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2011. – С 83.

[7] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 8.

[8] Шокирова М. Н. Ўзбек тилидаги «спорт» семемали бирликларнинг структур-семантик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 43.

[9] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. – Б 67

5-jadval.

Tadqiqot metodlarining tavsifi va qo‘llanish maqsadi

Metod nomi	Vazifasi	Olinadigan natija
Definitsion tahlil	Lug‘atdagi izohlarni o‘rganish	So‘zning semantik strukturasini aniqlash
Komponent tahlil	Ma’noni semalarga parchalash	Arxisema va differensial semalarni ajratish
Ierarxik tasniflash	Birliklarni pog‘onalarga ajratish	Tur-jins (giponimik) munosabatlarini o‘rnatish
Statistik tahlil	Miqdoriy ko‘rsatkichlarni hisoblash	Maydonning leksik hajmini belgilash

Maydon tadqiqida lisoniy birliklarning o‘zaro bog‘liqligini tekshirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

6-jadval.

Maydonni strukturalash bosqichlari

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar
1-bosqich	Tekst va lug‘atlardan leksikani saralab olish (sploshnaya vыborka)
2-bosqich	Integral semalar asosida maydon yadrosini belgilash
3-bosqich	Mikromaydonlar va leksik-semantik guruhlarni ajratish
4-bosqich	Yadro, markaz va periferiya chegaralarini modellashtirish

Qo‘llanilgan metodlar majmui til tizimining maydon tabiatini ham sinxron, ham diaxron jihatdan mukammal tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijasida til tizimini maydonlar orqali modellashtirish lisoniy birliklarning nafaqat semantik, balki ierarxik va funksional tabiatini ham ochib berishi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida leksik katlamni mazmuniy maydonlarga ajratish jarayonida lisoniy birliklarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari yillar davomida kengayib borayotganligi kuzatiladi.

Xususan, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ning turli yillardagi nashrlarini meronimik (butun-qism) munosabatli maydonlar misolida qiyoslash quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

7-jadval.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida meronimik maydon birliklarining miqdoriy o‘zgarishi

Maydon nomi (Meronimik guruh)	1981 yil nashri (birlik soni)	2006-2020 yillar nashri (birlik soni)	O‘sish ko‘rsatkichi (%)
Odam tanasi a’zolari	136	181	33%
Kiyim va kechak qismlari	34	48	41%
Mexanizm va asboblar qismi	123	150	22%
Idishlarning qismlari	88	149	69%
Inshoot qismlari	30	46	53%

Mazkur jadval shuni ko‘rsatadiki, til tizimini maydonlar asosida tushunish va lug’atlarda aks ettirish jarayonida «idishlar» va «inshootlar» kabi konkret predmetli maydonlarda derivatsion va terminologik boyish yuqori bo‘lgan.

Shuningdek, abstrakt tushunchalar tizimida ham maydon strukturasining murakkab ierarxik ko‘rinishi isbotlandi. Masalan, «ma’naviyat» semantik maydoni o‘z ichida 30 ga yaqin mikromaydonlarni (axloq, vijdon,

sabr va b.) birlashtirishi va ularning har biri yadro-periferiya prinsipi asosida shakllanishi aniqlandi [1,128].

8-jadval.

«Ma'naviyat» semantik maydonining tarkibiy komponentlari (O'zbek tili misolida)

Mikromaydon turi	Yadro (Core) birliklari	Periferiya (Periphery) birliklari
Axloq	odob, axloq, xulq	xushmuomalalik, andisha, hayo
Vijdon	insof, diyonat, imon	halollik, poklik, vijdon azobi
Aql (Mental)	tafakkur, bilim, zakovat	farosat, ong, tushuncha
Nafs	nafs, ehtiyoj	ochko'zlik, qanoat, tama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til tizimini maydonlar orqali tadqiq etish go'yoki «lisoniy mozaika»ni yig'ish jarayoniga o'xshaydi. Biroq, Yoxan Trirning klassik mozaika modelidan farqli o'laroq, zamonaviy maydon nazariyasi tilda «bo'shliqlar» (lexical gaps) va «ustma-ust tushishlar» (overlaps) mavjudligini tan oladi[1].

Trir tilning leksik tarkibi tushunchalar maydonini zich va bo'shliqlarsiz qoplaydi deb hisoblagan bo'lsa, A.Lerer va boshqa zamonaviy tilshunoslar tildagi ma'noviy noaniqlik (fuzzy indeterminacy) va «leksik bo'shliqlar» lisoniy voqelikning tabiiy holati ekanligini ta'kidlaydilar[2] . Bizning kuzatishlarimizda ham o'zbek tilidagi «yer sathi ko'rinishlari» maydonida ba'zi tushunchalar uchun alohida leksema mavjud emasligi (masalan, balandlikning ma'lum bir aniq darajasi uchun) lisoniy tejamkorlik va ehtiyoj bilan izohlandi[3].

Maydon nazariyasida yadro va periferiya chegaralari doimo o'zgaruvchan va noaniq (imaginary and vague) bo'ladi[4]. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir davrda maydonning chetida turgan so'zlar ijtimoiy ehtiyoj tufayli yadroga ko'chishi mumkin. Masalan, «sport» maydonida yangi kirib kelgan atamalar dastlab periferiyada paydo bo'lib, keyinchalik tizimning markaziy qismiga mustahkam o'rnashadi[5].

Bugungi kunda maydon nazariyasi til korpuslarini yaratishda semantik teglash (semantic tagging) uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Til birliklarini taksonomik va meronimik modellarga ajratish kompyuter lingvistikasida ma'lumotlarni qidirish tizimining aniqligini ta'minlaydi[6].

Xulosa qilib aytganda, til tizimini maydonlar orqali tushunish go'yoki tilni «tizimlar tizimi» (system of systems) sifatida qabul qilish demakdir. Bu yondashuv tilning nafaqat ichki qurilishini, balki uning inson ongi va olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liqligini ham ilmiy asoslash imkonini beradi.

Til tizimini maydonlar orqali tushunish va tadqiq etish nazariyasining shakllanishi tilshunoslik ilmida tub burilish yasagan hodisa bo'ldi. Olib borilgan nazariy va tahliliy kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tilni tizim sifatida o'rganish g'oyasi Vilgelm fon Gumboldtning «tilning ichki shakli» haqidagi qarashlaridan boshlanib, Yoxan Trir va Gyunter Ipsenning «mazmuniy maydon» konsepsiyalari orqali mustahkamlandi. Bu yondashuv tilni mantiqiy va lingvistik jihatdan bir-birini taqozo etuvchi elementlarning yaxlit makrosistemasi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Har qanday semantik maydon murakkab ierarxik tuzilishga ega bo'lib, u yadro (nucleus), markaz va periferiya qismlaridan tashkil topadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maydonning yadro qismida eng faol va umumlashgan ma'noli leksemalar joylashsa, periferiya qismida boshqa maydonlar bilan tutashuvchi va kontekstual ma'no kasb etuvchi birliklar voqelanadi.

O'zbek tili leksikasini maydon asosida o'rganish til birliklari orasidagi giponimik, partonimik (meronimik) va graduonimik munosabatlarni yangi bosqichda ochib berdi. Xususan, taksonomik va meronimik birliklarning miqdoriy o'sishi tilning lug'at boyligi nafaqat kengayib borayotganini, balki tizimli ravishda murakkablashayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda til tizimini maydonlar orqali mod-

[1] Lehrer A. Semantic Fields and Lexical Structure. – North-Holland Publishing Company, 1974. – P 130.

2 Кўрсатилган манба – Б 105

[3] Исломов И. Х. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б 76

[4] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 17.

[5] Шокирова М. Н. Ўзбек тилидаги «спорт» семемали бирликларнинг структур-семантик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона, 2020. – Б 40.

[6] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Теритз, 2022. – Б 56.

ellashtirish kompyuter lingvistikasi, xususan, milliy korpuslarni yaratish va semantik teglash tizimlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Til birliklarini tizimlar tizimi sifatida tushunish olamning lisoniy manzarasini to'liq idrok etish va sun'iy intellekt tizimlarida inson tilini to'g'ri ifodalash uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, maydon nazariyasi tilshunoslikni tavsifiylikdan aniq mantiqiy-strukturaviy tahlilga o'tkazgan asosiy vosita bo'lib qolmoqda. Ushbu yondashuv kelgusida tilning nafaqat leksik, balki grammatik va funksional sathlarini ham yagona mazmuniy tizim sifatida tadqiq etishda keng istiqbollar ochadi.

Rezyume. Maqolada til tizimini maydonlar orqali tushunish va modellashtirish g'oyasining vujudga kelishi hamda lisoniy evolyutsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi maydon nazariyasining falsafiy-lingvistik ildizlarini ochib berish va uning o'zbek tilshunosligidagi tatbiqiy ahamiyatini asoslashdan iborat. Ishda sistem-struktur tilshunoslik tamoyillari, komponent tahlil va yadro-periferiya modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, lisoniy maydon tushunchasi tilning tavsifiy holatdan dinamik-tizimli holatga o'tishini ta'minlagan bo'lib, u o'zbek tili leksikasini «tizimlar tizimi» sifatida tasniflash imkonini beradi. Qayd etish joizki, maydonlar orqali modellashtirish bugungi kunda kompyuter lingvistikasi va milliy korpuslarni yaratishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Resume. The article analyzes the emergence and linguistic evolution of the idea of understanding the language system through field theory. The aim of the research is to reveal the philosophical and linguistic roots of field theory and to substantiate its practical significance in Uzbek linguistics. The study employs the principles of systemic-structural linguistics, componential analysis, and core-periphery modeling methods. The results indicate that the concept of the linguistic field facilitated the transition of language from a descriptive to a dynamic-systemic state, enabling the classification of the Uzbek lexicon as a «system of systems». In conclusion, it is noted that field-based modeling serves as a methodological foundation for the development of computational linguistics and the creation of national corpora.

Резюме. В статье анализируются возникновение и лингвистическая эволюция идеи понимания языковой системы через теорию полей. Целью исследования является раскрытие философско-лингвистических истоков теории поля и обоснование её прикладного значения в узбекском языкознании. В работе использованы методы системно-структурной лингвистики, компонентного анализа и моделирования по принципу ядро-периферия. Полученные результаты показывают, что концепция лингвистического поля обеспечила переход языка из описательного в динамико-системное состояние, что позволяет классифицировать лексику узбекского языка как «систему систем». В заключении отмечается, что моделирование через поля служит методологической базой для развития компьютерной лингвистики и создания национальных корпусов.